WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ: ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Niyazova Gulbahor Davronovna

Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta`lim kafedrasi o`qituvchisi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada maktabgachata'lim tizimidagi tub islohatlar va ularning qonun va qarorlar asosida ijrosi.Shu sohadagi bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z yuritilgan .*

Аннотация*: В этой статье идет речь о выполнении законов и реформ в системе дошкольного образования и о внедрении всех задач в этой сфере на современном этапе.*

Annotation*: This article is devoted to the reforms on pre-school education , their law and implementation. Article also concerns with works which are held in this sphere nowadays.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, tizimi, kadrlar, aqliy tafakkur, kompyuter savotxonlik, zamonaviy ta'lim, islohatlar, chora-tadbir.*

Key words: *pre-school education, system, workforce, intelligence , capability of using computer, modern education, reforms, measures.*

Ключивые слова: *дошкольное образование, система, кадры, мышление, компютерная грамотность, современное обучение, реформы, мера.*

Bir so'z bilan aytganda, biz maktabgacha ta'lim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz kerak. Kelgusi 3-4 yilda 5-6 yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha ta'limga to'liq qamrab olishga erishmog'imiz shart. Bu ertangi kunimizni hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz.

SHavkat Mirziyayev.

Kelajak poydevori bo`lmish o`gil-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishda ta`lim tizimining raqobatbardoshligi va uni har tomonlama iqtisodiy-ijtimoiy va ma`naviy rivojlanlantirish, zamon talablariga mos ravishda zamonaviylashtirish O`zbekistonning ichki siyosatida o`rin tutgan bosh va ustuvor vazifalaridan biridir.

Uzluksiz ta`limning boshlang`ich bo`g`ini hisoblangan Maktabgacha ta`lim tizimini tubdan isloh qilish borasida keng qamrovli o`zgarishlar olib borilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarorlari bilan “Maktabgacha ta`lim vazirligi” faoliyatini tashkil etilishi soha rivojlanishiga turtki bo`ldi.

Islohotlar natijasida, tizimda oxirgi 2 yil ichida amalga oshirilgan islohotlar va istiqbolli harakatlar, sohaning bolalarning endi paydo bo`layotgan iqtidorlarini rivojlantirishga va ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Jumladan, qarorning ijrosini ta`minlash Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil “Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi farmonlari ijrosini ta`minlash bo`yicha tizimda davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, sohaning boshqaruv mexanizmini tubdan takomillashtirish, davlat budjetini ajratish, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi. [1]

Farmon bo`yicha endilikda Maktabgacha ta`lim vazirligi o`zining “Maktabgacha ta`lim metodikasi” jurnaliga ega bo`lishi sohadagi innovatsion pedagogik o`zgarishlar va normativ hujjatlar to`g`risida ma`lumotlar berib borilishi sohaga oid barcha munosabatlarni o`z ichiga olishni o`z oldiga vazifa qilib qo’ydi.

Bundan tashqari tizimdagi istiqbolli o`zgarishlarni belgilash doirasida 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan respublikada maktabgacha ta’lim tizimini

yanada takomillashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ning joriy etilishi ham o`z samarasini ko`rsatmoqda. Jumladan 2017-yil yakuni bo`yicha maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarning qamrovi 10 foizga oshishi kuzatildi. Bu ko`rsatkich esa 2018-yilda 34 foizga yetdi.

Xuddi shu o`rinda ta`kidlash lozimki, yosh bolalardagi o`zgacha kayfiyat va ruhning shakllanishi, ulardagi yashirin qobiliyatlarning paydo bo`lishi, ularning zamon talablariga mos ravishda ta`lim-tarbiya olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan birgalikda qachon, qayerda va kim tomonidan, qanday holda tarbiyalanishiga bog`liq. Bunda bolalarning har tomonlama rivojlanishida pedagog-tarbiyachilarning mas`uliyati katta bo`lib hisoblanadi. Prezidentimiz topshirig‘lariga asosan oliy ta’lim muassasalari uchun maxsus sirtqi bo‘limlarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha 2018-2023 yillar uchun kvotalar ajratilishi, bu sohada ham oliy ma`lumotli mutaxassislarining faoliyat ko`rsatishi tizimda yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash zarurligi yo`lga qo`yilishi sohada bolalarning kamol topishida juda katta yangilik bo`ldi.

Oxirgi natijalar shuni ko`rsatyaptiki, zamonaviy texnologiyalarining maktabgacha ta`lim tizimida qo`llanishi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya`ni bunda kompyuterdagi turli xil grafiklar, rasmlar, chizgilar, bola yoshiga mos turli xil annimatsiyalarning aks etishi ularning tassavurlari boyishiga ximat qiladi. Masalan, sohada kompyuter-texnologiyalarining qo`llanilishi natijasida NAEYC (Ta`limda Yosh Bolalarning Milliy Assotsiatsiyasi) ning o`rgangan tadqiqotlari bo`yicha bolaning:

1) ijtimoiy va emotsional rivojlanishida

- aqliy ya`ni, o`zini anglay olishi va ularning yangi narsani o`rganishga bo`lgan munosabatini o`zgartiradi;

- muloqot qilish darajalarini o`stiradi;

- hayoti davomida tashabbuskor va liderlik qobiliyatlarini namoyon bo`lishini tezlashtiradi;

2) tilning rivojlanishida:

- murakkab so`zlarning nutqda qo`llanishi, so`zlashuvning davomiyligi;

- kompyuterda biror obyektni chizayotgan vaqtda uni hikoya qilib bera olish qobiliyatini o`stiradi

- nutqi ravonlashuvi kuzatiladi.[2]

Shunga qo`shimcha tarzda aytish mumkinki, bu tashkilotning ba`zi ekspertlari bolaning kompyuter bilan ishlash qobiliyatlari 3 yoshdan oshgan bolalar uchun samarali ekanligini ta`kidlashadi.

Hozirgi kunda Yevropaning ba`zi qismlarida (AQSh ning markaziy shtatlari) bunday zamonaviy texnologiyalarining maktabgacha ta`lim tizimi jadvallarida qo`llanilishi bu sohadagi ta`lim-tarbiya jarayonini boyitish, kengaytirish, individuallashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Ular o`z faoliyatida texnologiya integratsiyasi (qo`shilishi) ni quyidagi holatlarda qo`llaydilar:

1. Kompyuter-texnologiya sohasini biladigan kadrlar tayyorlash orqali;
2. Bola yoshiga mos ravishda programmalar bilan ta`minlash;
3. Tizimda shu soha bilan shug`ullanuvchi doimiy ishchi-guruh tashkil etish orqali

AQShning 800 dan ortiq maktabgacha ta`lim muassasalari pedagoglaridan so`rovnoma o`tkazilganda ularning 90% i sinfda bolalar uchun texnika qurilmalari mavjudligi va ular orqali ta`limning samarali tarzda olib borilishini ta`kidlagan. Tadqiqotchilar aytishicha, bunday har tomonlama yetuk bilimli zamonaviy pedagoglar uchun talab ko`pligi har bir shtatlarda ko`pchilik foizni tashkil etar ekan. Ularga ta`limda texnologiyalarning integratsiyallashuvini ta`minlashi uchun sharoitlar yaratib berilishi, misol

sifatida, jarayonda turli xildagi texnikaviy uskunalar (gadgets), elektron stollar (desktop) va interaktiv oq rangdagi doskalar (interactive whiteboards) ning foydalanilishi bolalarning noyob tabiatini o`stirishga xizmat qilar ekan. [3]

Aytib o`tish lozim, O`zbekiston ham bu yo`lda ilg`or davlatlar qatori shiddat bilan o`sishda davom etyapti. Maktabgacha ta`limda sharqning kuchli davlatlaridan Koreya, Yevropaning ta`limda o`zining ajralmas xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Germaniya kabi davlatlari bilan xorijiy tajriba almashinib bu sohaning rivojlanishini izchil davom ettirib kelmoqda .

Misol sifatida, o`tgan yilning o`zida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 20ga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilib, tajriba almashinuvi, O‘zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog‘chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Safar chog`ida Koreyaning bir qator ta'lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta'lim muassalari bo‘lgan oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. 2017 yilning 23 noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va va maktabgacha ta'lim masalalarini o‘rganish Instituti (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Endilikda, Kelishuv doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi va KICCE hamkorligida qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazilishi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan

dasturlar amalga oshirilishi, ochiq seminarlar va konferensiyalar tashkil etilishiga kelishib olindi.

Respublikamizda bu kabi istiqbolli kelishuvlar natijasida sohada bir qator yangiliklar va yengilliklar yaratildi. Shu qatorda , xususiy (nodavlat) bog`chalarning soni ortib yildan-yiga ortib borishi, ularda servis turlarining ortib borishi, birgina “Keytring” tizmining yo`lga qo`yilishi, 2018-yildan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida “Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish va navbatga qo’yish bo’yicha elektron dastur”ning joriy etilishi jamiyatda ortiqcha ovoragrchilikka chek qo`yilishini aytish lozim.

Xulosa o’rnida shuni aytmoq bugungi kunda ta’limning dastlabki bo’g’ini bo’lmish maktabgacha ta’lim tizimi ham yaqin yillarda o`zining buyuk istiqboliga ega bo`ladi. Bir so`z bilan aytganda, oliy-mutaxassis kadr va zamonaviy texnologiya yurt kelajagi bo`lgan yoshlarning barkamol avlod bo`lib yetishida ulkan yo`l ochib beradi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Makhmudovna, Nigmatova Mavjuda, et al. "Language is a Means of Cognition and Communication for Teaching in Education." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.1 (2020): 247-256.
2. Ниязова, Г. Д., М. М. Нигматова, and С. С. Хужаева. "Современное представление о физиологическом механизме внимания и памяти." *Научно-спортивный вестник Урала и Сибири* 5 (2015): 50-55.
3. Niyazova, Davronovna Gulbahor, and Davronovna Sitora Niyazova.

"Professional training of future teachers for creative activity." *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11.1 (2021): 569-570.

4. Ниёзова, Гулбахор Давроновна. "ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ." *Проблемы педагогики* 6 (51) (2020).
5. Ниязова, Гулбахор Давроновна. "Воспитание нравственности у детей дошкольного возраста." *Проблемы педагогики* 3 (48) (2020): 19-21.
6. Ниязова Г. Д., Ниязова С. Д. ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГОТОВНОСТЬ ДЕТЕЙ К ОБУЧЕНИЮ В ШКОЛЕ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1048-1055.
7. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. ФОРМИРОВАНИЕ ОТДЕЛЬНЫХ СПОСОБОВ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ЗАНЯТИЯХ «ОЗНАКОМЛЕНИЕ С ПРИРОДОЙ» //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1093-1101.
8. Ниязова Г. Д. ИНТЕГРАЦИЯ УРОКОВ-ВАЖНАЯ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 60-66.
9. Мирходжаева, Ситора Давроновна Ниязова Наргиз. "СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СТРАТЕГИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ."
10. Ниязова С. Д. ОСОБЕННОСТИ ПОСТРОЕНИЯ И ПРОВЕДЕНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ //BOSHQARUV VA ETIKA

QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 166-172.

11. Ниязова С. Д., Ниязова Г. Д. ВЛИЯНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ДОШКОЛЬНОМ И МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 114-121.
12. Ниязова С. Д., Мирходжаева Н. СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СТРАТЕГИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1186-1190.